



UDK: 378: 005. 321

Xayrullo TUYCHIYEV,

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti dotsenti, PhD

E-mail: samixon@inbox.ru

Nodira USMANOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

O'zDJTSU dosenti A.Shermuxe'dov taqrizi asosida

TALABALARNING OLIY TA'LIMGA MOSLASHISHIDA KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Talabalarning oliy ta'limga moslashishida kasbiy-pedagogik kompetensiyalarning ahamiyati yuzasidan fikr mulohazalarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, pedagogik kompetensiya, kasbiy-pedagogik kompetensiya, moslashish, kasb, mutaxassislik, malaka, ko'nikma.

ЗНАЧЕНИЕ УЧЕБНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ К ВЫСШЕМУ ОБРАЗОВАНИЮ

Аннотация

У вас появятся мнения о значении профессионально-педагогической компетентности в доступе студента к высшему образованию.

Ключевые слова: Компетентность, педагогическая компетентность, профессионально-педагогическая компетентность, подготовка, профессия, специальность, квалификация, мастерство.

THE IMPORTANCE OF EDUCATIONAL AND PEDAGOGICAL COMPETENCE IN PREPARING STUDENTS FOR HIGHER EDUCATION

Annotation

You will develop opinions about the importance of professional and pedagogical competence in a student's access to higher education.

Key words: Competence, pedagogical competence, professional pedagogical competence, training, profession, specialty, qualification, skill.

Kirish. Jahondagi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv jarayoni subyektlarining tayanch hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirish tajribasidan bugungi kunda samarali foydalanilmoqda. Jumladan, AQSH, Germaniya, Angliya, Niderlandiya, Avstriya, Rossiya kabi davlatlarda talabalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish sohasida samaradorlikka erishilmoqda. Bu esa, o'z navbatida Yevropa davlatlarida kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni ijtimoiy faoliyatga tayyorlash, olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda sinab ko'rish, axborotlar bilan faol ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida ustuvor yo'nalishlar sifatida o'z aksini topgan. Oliy ma'lumotga ega bo'lish jahon miqyosida muhim ehtiyoj bo'lib qaralmoqda, shu bilan birga oliy ta'lim muassasasidagi talabalarning ta'lim jarayoniga pedagogik moslashishi hamda talabalarning aqliy qobiliyati va tafakkurini rivojlantirish, moslashishning adaptiv mexanizmlarini yanada rivojlantirish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Mazkur yo'nalishda, ayniqsa talabalarning oliy ta'lim muassasasiga pedagogik moslashishining adaptiv mexanizmi hamda talabalarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish masalalariga keng e'tibor qaratilmoqda va dolzarb hisoblanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Talabalarning oliy ta'limga moslashishida kasbiy-pedagogik

kompetensiyalarning ahamiyatli ekanligini ushbu tadqiqotlardan ba'zilarini quyida ko'rib chiqamiz.

N.SH.Miftaxova, D.B.Bagautdinova, L.P.Shamsutdinova fikricha, tabiiy fanlar bo'yicha adaptasiya atamasi aniq ifodalangan ijtimoiy, psixologik va pedagogik ma'noni kasb etib, inson shaxsiyati va borliqni anglashda ijtimoiy-madaniy muhitlar hamda ular uchun zaruriy qadriyatlar, meyorlar, xulq-atvor ko'rinishlarini o'zlashtirish ko'nikmalari, bundan tashqari, ijtimoiy-madaniy muhitlarning inson va hamjamiyatlar maqsadlariga muvofiq o'zgarishini bilib oladi va moslashadi va ular bilan muomala qilishning yetarli usullarini tanlash va o'zaro ta'sir jarayonida ushbu usullarni amalga oshirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu yerda o'zini boshqaning o'rniga qo'yish qobiliyati alohida rol o'ynaydi.

Pedagogika fani va amaliyotida moslashish tushunchasi ham kasbiy, ham ijtimoiy o'rganilgan, biroq moslashishda kasbiy-pedagogik faoliyatning o'zni muammosiga yetarli e'tibor berilmagan. Moslashish yetakchi olimlar tomonidan quyidagicha taqdim etiladi: maqsadga erishishda makonning faol rivojlanishi shaxsning psixologik o'z-o'zini pivojlantirishiga bog'liqdir (V.Y.Kpyakvin, L.C.Pechenina, E.I.Finogenov, M.N.Vrajnova, N.N.Darenkova, V.A.Kruchinin va boshqalar);

- kasbiy muhim fazilatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish jarayonida bo'lajak mutaxassisning hamda o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar umumiylihi muhim o'rin tutadi (V.A.Zaichenko);

- shaxsning ma'lum bir jarayonga faol moslashishi kasbiy faoliyat va kasbga kirishi uchun turli yo'llar bilan ochib beriladi: ba'zi hollarda, kasbiy faoliyatga tizimli paviyishda kirish, insonning kasbga kirishi va uning kasbiy muhit bilan o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirishda "kirish", "tabiatga moslashish" kasbiy faoliyat talablariga mos bo'lishi lozim.

Bo'lajak mutaxassisning kasbga moslashish jarayoni, yangi ijtimoiy muhit, mehnat sharoiti va muayyan mutaxassislik xususiyatlarini E.A.Lebedeva shunday ta'riflaydi:

- oliy ta'lim tuzilmasiga hamda o'quv jarayonining mazmuni va tarkibiy qismlariga, tanlangan kasbning o'ziga xos xususiyatlariga moslashish bilan belgilanadi.

O.Q.Haydarovanning ilmiy ishlarida talabalarining kasbiy pedagogik faoliyatga moslashuvini o'rganish jarayonida "kasbiy va pedagogik faoliyatga moslashish" tushunchasining mohiyatini kasbiy davrlardagi ijtimoiy, psixologik, ta'lim, mehnat, ishlab chiqarish faoliyati orqali insonning kasbiy faoliyat sohasiga muvaffaqiyatli kirishini ta'minlaydigan integrativ ko'p bosqichli jarayonligini ta'kidlangan [90].

Talabaning kasbga tayyorgarligini bosqichma-bosqich shakllantirish uning rivojlanish istiqbollarini ongli ravishda qurish, ma'lum bip kasbiy faoliyatda o'zini o'zi belgilash vazifasidir.

V.Y.Kryakvin izlanishlarida kasbiy o'z-o'zini aniqlash uchun tanlangan kasbga motivatsion va qiymat munosabatini pivojlanirishga qaratilgan yo'l haqida o'ylashdan boshlanadigan faoliyat shakli, deb tushuntiriladi. Kasbiy o'z-o'zini aniqlash jarayoni talabalarining universitetga qabul qilish bilan boshlanadi. Insonning umumiy ta'limdan professional ta'limga o'tishi ta'lim bir qator ichki va xulq-atvor o'zgarishlarini o'z ichiga oladigan hayotning va faoliyatning yangi sharoitlariga moslashish haqida yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tendensiyalarini boshqarishning tashkiliy-pedagogik konseptual asoslari, kadrlar tayyorlashdagi ilmiy-pedagogik muammolar Sh.E.Qurbonov, E.Seytxalilov, S.Y.Ashurova va M.A.Davlatov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari nazariyasi va amaliyoti bo'yicha L.V.Golish, N.A.Muslimov, U.Nishonaliyev, N.Sayidaxmedov, O'Q.Tolipov va B.N.Farberman hamda ta'lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari bo'yicha A.A.Abduqodirov, U.SH.Begimqulov va F.M.Zakirovalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Talabalarining oliy ta'lim muassasida ta'limga moslashishi muammolarining turli yondashuvlari bo'yicha L.N.Boronina, A.L.Andreyev, G.V.Bezyulyova, S.V.Vasilyeva, S.M.Vishnyakova, V.A.Kruchinin, E.O.Leonteva, YE.I.Muratova, YE.A.Osipov, YE.V.Osipchukova, A.V.Panixina, S.A.Runova, R.R.Xusainova, T.YE.Chikina, L.A.Yasyukova va boshqalar tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda ta'lim oluvchi shaxsning rivojlanishi xususiyatlari D.Bartram, A.Bandura, A.N.Leontev, A.Maslou, F.Barron, S.L.Rubinshteyn, R.Dyson, D.Harrison, S.Hoare, O.Lopez-Fernandez, A.Morales, C.Palmer va S.Sippellar tomonidan tadqiq qilingan.

G.P.Novikova ta'rifiga ko'ra kasbga doir moslashish – kasbi bo'yicha yangiliklarni o'rganish, ilg'or uslubiy va ijtimoiy yangilanish, soha bo'yicha innovatsion tub islohotlarning namoyon bo'lishi va unga shaxsning rioya etish ko'nikmalari tushuniladi.

M.Ochilov ilmiy ishlarida talabalarining moslashish jarayonida odatda quyidagi qiyinchiliklar ta'kidlanadi: kechagi o'quvchilarning maktab jamoasidan uni qo'llab-quvvatlash,

o'zaro yordam va ma'naviy qo'llab-quvvatlash bilan ketishi bilan bog'liq salbiy tajribalar, kasb tanlash motivatsiyasining noaniqligi, unga pedagogik va psixologik tayyorgarlikning yetarli emasligi; xulq-atvor va faoliyatda o'zini o'zi boshqarishni amalga oshira olmaslik, pedagoglarning kundalik nazorati odatining yo'qligi; yangi sharoitlarda maqbul ish va dam olishni izlash; kundalik turmush va o'z-o'ziga xizmat qilishni yo'lga qo'yish, ayniqsa, uyan yotoqxonaga ko'chib o'tishda; nihoyat, mustaqil ish ko'nikmalarining yo'qligi, eslatma olish, birlamchi manbalar, lug'atlar, kataloglar, ma'lumotnomalar bilan ishlashda qiyinchiliklarda kuzatiladi deya talqin qilingan.

Tahlil va natijalar. Talabalarining oliy ta'limga moslashishida kasbiy-pedagogik kompetensiyalarining ahamiyati mavzusida quyidagi umumlashma xulosalarni aytish mumkin:

"Kasbga" hamda "pedagogik faoliyatga moslashish" atamalarining mohiyati kasb tanlash va undan keyingi faoliyat tizimi, shuningdek mustaqil kasbga doir mehnat qilishda ijtimoiy, psixologik, o'quv va shu bilan bir vaqtda ishlab chiqarish faoliyati oprali insonlarning kasbga doir faoliyatlari sohasida o'zlarining muvaffaqiyatli xatti-xapakatlarini ta'minlaydigan ko'p bosqichli jarayon sifatida tahlil qilindi va ilmiy asoslandi.

"Moslashish" atamasiga ta'rif berishda: inson shaxsini ruhiyati orqali o'zi-o'zini yuqori cho'qqilarga ko'tarish maqsadida atrofda olamni o'rganish va boshqarish; ta'lim tizimidagi shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va ularning umum jihatlarini tufayli kelajakdagi mutaxassisning kasbiy muhim fazilatlarini bosqichma-bosqich shakllantirish; yosh avlodni ish bilan tanishtirish jarayoni; shaxsning ma'lum bip kasbiy faoliyatga kirishi va faol moslashuvi.

Talabalarining kasbiy moslashuvi-bu ajralmas ko'p komponentli tizim bo'lib, uning xususiyatlari uning tarkibiy qismlari xususiyatlarining yig'indisiga kamaytirilmaydi. Biroq, ushbu tizimning tarkibiy qismlari nisbatan mustaqildir. Ularning o'zaro ta'siri, agar ulardan biri hukmronlik qilsa, turli xil natijalarga olib kelishi mumkin. Ushbu tizimning har bir komponenti, ierarxiya prinsipiga ko'ra, o'z tarkibiy qismlarini o'z ichiga olgan tizim sifatida qaralishi mumkin.

Shaxsning o'zi sevgan kasbi va mehnatining samaradorligi egallab turgan kasbi bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, o'qituvchi murabbiy faoliyatini takomillashtirish texnologiyasi yutuqlari, zaruriy ma'lumotlarning taqqoslanishi belgilangan maqsadlarga erishish dapajasi va pedagogik muammolarni hal qilish bo'yicha aniq natijalarga asoslanadi.

Talabalarining OTMga moslashishlarida interaktiv rejimda qurilgan ma'ruzalar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar, shaxsiy va kasbiy o'sish bo'yicha treninglar, ishbilarmonlik o'yinlari; muzeylarga tashriflar, o'tgan yillar universiteti bitiruvchilari bilan uchrashuvlar, o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlar yaxshi samara berishi amaliy hisobotlandi.

Talabalarining kasbiy va pedagogik faoliyatga moslashish funksiyalari aniqlandi: ijtimoiy, ta'limga oid hamda bilim oluvchilar orasidagi turli o'zgarishlarni tartibga solish, bu pedagogik faoliyat uslubini o'zgartirishga, o'qitish kommunikatsiyasini takomillashtirishga va o'quv jarayonining samaradorligini yanada oshirish; ta'lim ishtirokchilarining yuqori muloqot madaniyati va tarmoqdagi bilimlar sharoitida guruhviy hamda individual o'zaro aloqalarni tashkil etish, kasbiy va pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash va kasbiy muhitga kirish kabi jarayonlarning maqbul xolati talqin etildi.

O'zgaruvchan va pivojlanib borayotgan ta'lim muhitida ta'lim oluvchilarning kasbga tegishli hamda o'qituvchilik faoliyatida o'zigagina tegishli bo'lgan xulq-atvor, kasbiy tayyorgarlik, o'zlashtirilayotgan materialni

anglash hamda uni muvaffaqiyatli natijasiga ega bo'lishini muhim deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar. Umuman, xulosa sifatida aytish mumkinki, talabalarning moslashish jarayoni aynan o'sha muhitdagi yangi mavqeiga ega bo'lishi uchun undan muhim xususiyatlarga ega bo'lishni talab etadi, ya'ni talaba o'zining shaxsiy sifatlaridagi kamchiliklarni berkitib, ularga urg'u bergan holda xulqidagi yangicha ko'rinishlarni namoyon etishni talab etadi. Bu jarayon talabalardan ko'proq kuch talab etibgina qolmay, balki odatiy faoliyatidagi ishlarni amalga oshirishda ham o'z faolligini ortiqcha sarflashga olib keladi. Buning uchun ham pedagog-murabbiydan talab etiladigan tajriba, moslashish uchun mo'ljallangan chora-tadbirlarni qo'llay bilishi, tashkiliy pedagogik yo'l-yo'riqlarni ko'zda tutgan holda tartib-qoida, xuquqiy intizomni talab qilish taqozo etiladi.

Kasbiy adaptasiyaning muvaffaqiyatli bo'lishida shaxsning o'z-o'zini tartibga solishi juda katta rol o'ynaydi.

Yosh mutaxassisning kasbiy adaptasiyasi - bu doimiy va uzluksiz ravishda ichki va tashqi qiyinchiliklar va to'siqlarni yengish jarayonidir. Bu yengib o'tish va yo'l qo'ymaslik uchun maxsus tayyorgarlik talab qilinadigan stress holatlarni vujudga keltiradi. Muvaffaqiyatli adaptasiya mutaxassis tomonidan doimiy ravishda mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonlarisiz amalga oshishi mumkin emas.

Yuqorida ko'rib chiqilgan shaxsning ijtimoiy xususiyatlarning birligi uning faqat o'zigagina xosligida namoyon bo'ladi. Ushbu o'ziga xoslik o'zaro munosabatlarning yakka taptibdagi uslubini bildiradi va shaxsning xulq-atvorini belgilaydi, shuningdek adaptasiya jarayonining muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, mutaxassisning kasbiy adaptasiyasi - uzluksiz, doimiy, surunkali tarzda kechuvchi jarayondir, shuning uchun ham, uning maxsus psixologik ta'minoti zarur.

ADABIYOTLAR

1. Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlash va ularning malakasini oshirish muammolari. Monografiya.- T.: 2001.
2. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.-T.: 2001.
3. Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. Ekspress qo'llanma T.: TESIS, 2001.
4. Ismoilova Z.K. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. T.: «Fan», 2003. 23. 5. Ismailova Z.K. Tarbiyaviy ish metodikasi. T.: Fan, 2003.
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi falsafasi va davlat ta'lim standartlarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. T.: O'MKXTRI, 2003.
6. «Pedagogik va axborot texnologiyalari: yutuqlar va istiqbollari» Respublika ilmiy—amaliy konferensiyasi materiallari T.: 2003.
7. Ismailova Z.K., Mustafoeva D.A., Tuychiyev X.E. «Kasbiy psixologiya» fani bo'yicha elektron o'quv qo'llanma dasturi
8. Usmanova N. Turli sport tayyorgarligiga ega yosh tennischilarning vestibulyar apparat barqarorligi darajasini va uni rivojlantiruvchi mashqlar samarasini tadqiq etish // ACTA NUUZ. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. – S. 175-179.
9. Usmanova N. The role of educational methods and developmental educational technologies in learning // Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – S. 1072-1080.